

## Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

### “Texnika fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
<p data-bbox="129 400 658 659"><b>Mahalliy ikkilamchi xomashyolar (sanoat va qurilish chiqindilari) asosida yuqori samarali quruq qurilish qorishmalarini ishlab chiqish texnologiyasini yaratish</b></p> 	<p data-bbox="763 357 1144 392"><b>Tadqiqot shakli:</b> Amaliy.</p> <p data-bbox="763 397 1155 432"><b>Ilmiy tadqiqot natijalari:</b></p> <ul data-bbox="689 437 2116 922" style="list-style-type: none"><li>- qurilish sanoatida hosil bo‘layotgan mahalliy ikkilamchi xomashyolar (issiqlik elektr stansiyasi kul-shlagi, domna shlagi, beton va temirbeton chiqindilari, shisha chiqindilari va boshqalar) ning kimyoviy-mineralogik tarkibi va faolligini kompleks tadqiq etish asosida mineral to‘ldirgich va faol qo‘shimcha sifatida qo‘llash imkoniyatlari aniqlanadi hamda quruq qurilish qorishmalari uchun ilmiy asoslangan tarkiblar ishlab chiqiladi;</li><li>- quruq qorishmalarning reologik, fizik-mexanik va ekspluatatsion xossalari (qotish vaqti, mustahkamlik, suvga chidamlilik, adgeziya, sovuqqa chidamlilik) o‘rganiladi;</li><li>- an’anaviy xomashyolar bilan solishtirma tahlil o‘tkaziladi va ishlab chiqilgan tarkiblarning iqtisodiy samaradorligi hamda ekologik afzalliklari asoslantiriladi;</li><li>- ichki va tashqi pardozi ishlari, devor va pol uchun mo‘ljallangan quruq qurilish qorishmalarini qo‘llash, mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish, import o‘rnini bosish va qurilish materiallarining tannarxini kamaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.</li></ul> <p data-bbox="689 927 2116 1086"><b>Natijalarni sinovdan o‘tkazish.</b> Olingan natijalar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tizimidagi korxonalarda hamda ilmiy-tadqiqot institutlarida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida <b>Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi</b> yoki <b>O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining</b> xulosasi olinadi.</p> <p data-bbox="689 1091 2116 1251"><b>Ilmiy natijalarni chop etish.</b> Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi.</p> <p data-bbox="689 1256 2116 1367"><b>Izoh.</b> Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar <b>Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi</b> yoki <b>O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining</b> qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.</p>